

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Sh. Sirojiddinov
2020-yil “ ___ ” _____

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2020-yil “ ___ ” _____

Ro‘yxatga olindi: № BD 5120100-2.02.

2020 -yil “ ___ ” _____

O‘ZBEK FOLKLORI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Toshkent-2020

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
O'F 2.02	2020-2021	1	6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek		6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek folklori	1-kurs 1-semestr Jami: 90 soat 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy, 30 soat seminar	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xalq og'zaki ijodi namunalari sinkretik san'at sifatida xalq ma'naviy hayotida muhim o'rin tutishini, unda o'zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o'zining badiiy ifodasini topganligi, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari va ularning janrlar tarkibi, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish. Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>San'at va badiiyat haqida ma'lumot beriladi. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos belgilariga tadrijiy tarzda to'xtalinadi. Badiiy adabiyot mohiyati ochib beriladi</p> <p>2-mavzu. Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqlarning janr xususiyati</p> <p>Mif tushunchasi izohlanib, uning xalq og'zaki ijodi asarlari tarkibiga badiiy estetik holatda o'tish jarayoni aytiladi. Mifologik tafakkurning badiiy estetik tafakkurga o'tish bosqichlari epos, ertak, qo'shiq misolida ochib beriladi.</p> <p>Afsona, rivoyat, naql atamallari haqida ma'lumot. Ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari. Afsona va rivoyatlar tasnifi. Afsona, rivoyat va naqlarda ifodalangan badiiy estetik mazmun ochiladi. Osmon yoritgichlari, tog', daraxt, suv, olov va hayvonlar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar misolida mavzu tahlil etiladi. To'maris va Shiroq rivoyatlari asosida Vatan mavzusi yoritiladi.</p> <p>3-mavzu. Mavsumiy va oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati</p> <p>Marosim va marosim folklori tushunchalari izohi. Marosim folklorining tarixiy asoslari (Sust xotin, Choy momo, Loy tutish, Shoh moylar). Mavsumiy marosim folklorida so'z magiyasining badiiy estetik sathga o'tishi va boshqa masalalar yoritiladi. Xalqona taqvimlar, Navro'z va boshqa marosimlarning verbal tizimi tahlil etiladi.</p> <p>Oilaviy marosim tushunchasi, tasnifi, turlari izohlanadi. Yor-yor, kelin salom, o'lan va boshqa janrlarning badiiyati, ma'no qatlamlari ko'rsatiladi. Ushbu marosim janrlarining obrazlar tizimi, she'riy tuzilishi ohang yo'llari tahlil etiladi, o'ziga xos jihatlari yoritiladi.</p>			

4-mavzu. Xalq dostonlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Doston janri haqida ma’lumot. Doston - xalq og‘zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqaning o‘rni. Xalq baxshilari haqida ma’lumot. Xalq dostonlarining ijro an‘anasiga ko‘ra (Samarqand, Xorazm, Farg‘ona) turlari. Dostonlarning tasnifi (qahramonlik, romanik, tarixiy, kitobiy, jangnoma dostonlari) haqida ma’lumot. Xalq dostonlarida turkumlik. Dostonlarning tasnifi masalalari.

5-mavzu. Qahramonlik dostonlari

“Alpomish” dostoni. “Alpomish” – qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variant va versiyalari haqida ma’lumot. “Alpomish” dostoni haqida munozaralar tahlili. “Alpomish” dostonining to‘liq matni nashrlari tahlili. “Go‘rug‘li” turkumi dostonlari. Go‘rug‘li turkumining shakllanish tarixi. “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida alplik tizimi, dostonlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari o‘rganiladi. Epos va etnos masalasi ko‘rib chiqiladi. Dostonlardagi etakchi qahramonlar genezisi tadrijiy bosqichlari yoritiladi. Asosiy motivlarning syujet ko‘lamidagi o‘rni, dostonlardagi epik qoliplar, an‘anaviy she‘riy takrorlarning badiiyati keng yoritib beriladi.

6-mavzu. Romanik dostonlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari

“Ravshan”, “Qunduz va Yulduz”, “Kuntug‘mish”, “Malika Ayyor”, “Orzugul” kabi dostonlar poetikasi tahlili orqali romanik dostonlarga xos xususiyat va belgilari ochiladi. Romanik dostonlarning etakchi motivlari, ularning qahramonlari, syujet tiplari, badiiy tasviriy vositalari, g‘oyaviy qatlamlari tahlil qilinadi.

7-mavzu. Kitobiy dostonlar

“Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Bahrom va Gulandon”, “Ibrohim Adham qissasi” kabi dostonlar asosida folklor – adabiyot, adabiyot – folklor tadrijiy o‘tish bosqichlarini, bu dostonlarning xalq badiiy estetik tafakkuri rivojidadagi o‘rni va xizmatlari ko‘rsatiladi, folkloriy tafakkurning qonuniyatlari borasida so‘z yuritiladi.

8-mavzu. Xalq ertaklari

Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri ekani. Ertak janrini anglatuvchi atamalar. Ertakda xalq hayoti, orzu-istaklari, psixologik dunyosining aks etishi. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklarning mazmuniga ko‘ra tasnifi. Ertaklarda boshlama, asosiy qism, yakunlama va etakchi syujet hamda motivlarning o‘rni masalalari.

Hayvonlar haqidagi ertaklar genezisi, ularning mifologik va mavsumiy marosimlar bilan aloqasi badiiy ramz va timsollari haqida so‘z boradi. “Susambil”, “Tuxum bilan buyrak”, “Qirq quloq”, “Bo‘ri bilan tulki” kabi ertaklar tahlili vositasida nazariy fikrlar dalillanadi.

Sehrli-fantastik ertaklar mag‘zidagi xalq falsafiy dunyoqarashi va uning badiiy talqinlari, ramz va timsollari ochiladi. “Kulsa gul, yig‘lasa dur”, “Ur, to‘qmoq”, “Ahmadlar”, “Gungula”, “Dunyoda yo‘q hunar” kabi ertaklar tahlili orqali sehrli-fantastik ertaklarning badiiyati, g‘oyaviy mazmuni ko‘rib chiqiladi.

Hayotiy maishiy ertaklarda ijtimoiy hayot muammolari ifodasi. Ularda do‘stlik, mardlik, zakiylik, insonparvarlik kabi shaxs fazilatlarining ulug‘lanishi. “Uch og‘a-ini botirlar”, “Malikai Husnobod”, “Zolim podsho”, “Ziyod botir”, “Uch ko‘r va bir yigit”, “Egri va to‘g‘ri” kabi hayotiy-maishiy ertaklarning badiiy qimmatini, g‘oyaviy ko‘lami yoritiladi. Hayotiy-maishiy ertaklarga xos syujet tiplari, etakchi motivlar, asosiy qahramonlar o‘rganiladi.

9-mavzu. Qo‘shiq: Mehnat qo‘shiqlari va termalar

Xalq qo‘shiqlari - xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan lirik janri sifatida. Xalq qo‘shiqlarida milliylik. Qo‘shiqlarning janr xususiyatlari, ularning ijro o‘rni, ohang yo‘llari, an’anaviy takrorlari, mavzu turlari o‘rganiladi.

Mehnat qo‘shiqlarining folklor san’atidagi o‘rni ochiladi. Qo‘shiqlarning mehnat turlariga ko‘ra farqlanishi, mehnat jarayoni va ibtidoda turli marosimlar bilan bog‘liq jihatlari ko‘rsatiladi. Mehnat qo‘shiqlari tarkibiga kirgan lirik xarakterdagi namunalar, xususan, “Yozi qo‘shiqlari” va boshqa misollar keng talqin etiladi.

10-mavzu. Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari

Bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida. Bolalar folklorining o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot (hajm, syujet chizig‘i, janrlar). Bolalar ertaklari va qo‘shiqlari misolida xalqning qadimiy dunyoqarashlari, marosimlari izining badiiy ko‘rinishda saqlanib kelayotgani va so‘z san’atining o‘ziga xos muhim bosqichi sifatida namoyon bo‘lishi tahlil etiladi. Bolalar qo‘shiqlarining tasnifi, o‘yin, qo‘shiq, tez aytishning janr xususiyatlari hamda boshqa masalalar batafsil yoritiladi.

11-mavzu. Lirik qo‘shiqlar

Lirik qo‘shiqlarda parallelizm, vazn, qofiya, badiiy til masalalari, ramz va timsollarning vazifalari ko‘rsatiladi. Ularning inson qalb kechinmalari tarjimoni ekanligi ta’kidlanadi. Qo‘shiqlarning estetik tarbiyadagi o‘rni haqida ma’lumot beriladi.

12-mavzu. Xalq maqollari va topishmoqlar

Maqol va uning janr xususiyatlari. Maqollarning badiiyati, obrazlilik, o‘z va ko‘chma ma’nolari. Maqollarning milliyligi va fikr ifodalashdagi uslubiy xususiyatlari. Maqollarning tasnif tamoyillari. Xalq maqollari va yozma adabiyot. Matal va chaldirmoq haqida ma’lumot. Matal va chaldirmoqlarning maqollardan farqi. Matal va chaldirmoqlar jonli va badiiy tilning uzviy qismi sifatida. Paremiologiya haqida ma’lumot.

Topishmoq – paremik janr sifatida. Topishmoqlarning ma’rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. Topishmoq poetikasi (timsollar olami, syujet va kompozitsion jihatlari). Topishmoq va chiston, muammo, tarix. An’anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari. Topishmoqlarda narsa va hodisalarning obrazlar vositasida yashirinib kelishi, ularning til imkoniyatlarini ochuvchi, inson aqlini charxlovchi o‘ziga xos janr ekanligi yoritiladi.

13-mavzu. Latifa va lof janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari

Latifa xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari. Sharq xalqlari latifalaridagi mushtaraklik. Nasriddin afandi timsoli. Nasriddin xalqning ideal qahramoni sifatida. Afandi obrazining yaratilishidagi ikki yo‘nalish Nasriddin Afandi obrazining genezisi va unga yondash Ovul Patta, Jiyron Chechan kabi qahramonlar bilan bog‘liq jihatlari. Latifalarning badiiy qimmatlari. Ularning kompozitsion jihati. Latifalarning til xususiyatlari. Zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni. Loflar – askiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag‘a va uning turlari haqida ma’lumot. Loflardagi mubolag‘a san’atining o‘rni va badiiy vazifalari.

14-mavzu. Askiya

Askiya janrining o‘ziga xos belgilari. Askiya – o‘zbek xalqining milliy merosi sifatida. Askiya san’atining o‘zbek xalq tilining o‘ziga xos jihatlari namoyon etuvchi noyob folklor janri ekanligi. Askiyaning payrov, gulmisiz, o‘xshatdim va boshqa turlari. So‘z o‘yinlarining askiyadagi ahamiyati. Askiyachilar haqida ma’lumot. Askiyachi ijodida omonim so‘zlardan foydalanish mahorati.

15-mavzu. Tomosha san’ati

Xalq dramasi haqida ma'lumot. Tomosha san'atining o'zbek teatr tarixi ibtidosida turishi, tomoshalarning xalq bayram sayllari va marosimlari bilan genetik bog'liq jihatlari. Xalq dramasi janr xususiyatlari. Xalq dramasi kompozitsion ixchamlik, syujetning tez rivojlanishi. Dramada satira va yumorning o'rni, ahamiyati. Xalq dramasi askiya va lof janrlarining belgilari. Xalq dramalarining badiiyati.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, versiya va variantlarining farqli jihatlari
2. Mif, afsona, rivoyatlar va ularning badiiyati
3. Mavsumiy marosim folklori namunalari badiiyati va ularning tahlili
4. Oilaviy marosimlar tadriji
5. O'zbek xalq dostonlarida pir va eran obrazlari
6. "Malika Ayyor" dostoni tahlili
7. Dostonchilik maktablari va ularning an'analari
8. Maishiy ertaklar va ularning tahlili
9. "Alpomish" dostoni tahlili
10. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni tahlili
11. Marosim qo'shiqlari: ijro o'rni va badiiyati
12. "Kuntug'mish" dostoni tahlili
13. Bolalar qo'shiqlari
14. Latifa, lof va askiya janrlari namunalari tahlili
15. Lirik qo'shiqlardagi ramzlar

Izoh: Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari talabalarni "O'zbek folklori"ga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni tanqidiy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars paytida munozara yoki ma'ruza shaklida namoyish etadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar hozirgi o'zbek tilining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishadi.

Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:

1. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos belgilari
2. Xalq og'zaki ijodining janrlari. Janrlararo munosabatlar
3. Mavsumiy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati
4. Oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati
5. Qahrmonlik dostonlari xususiyatlari
6. Ishqiy-romanik dostonlar tabiati
7. Kitobiy dostonlar
8. Xalq kitoblarining janr xususiyatlari
9. Xalq ertaklari turlari va ulardagi obrazlilik
10. Lirik qo'shiqlarda ramziylik
11. Mehnat qo'shiqlarini yaratilishi, tarixi va badiiyati
12. Bolalar folklori: janrlari taraqqiyoti va xususiyatlari
13. Alla janri xususiyatlari va badiiyati
14. O'zbek xalq maqollari janr xususiyatlari va genezisi

15. Topishmoq janri va undagi badiiy san'atlarning o'rni

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mif va badiiy adabiyot munosabatlari.
2. Mustaqillik yillarida xalq og'zaki ijodining davlat maqomiga erishishi, mifologik tasavvur va bilimlarni o'rganish imkoniyatining tug'ilganligi.
3. Bolalar folklorida mifologik elementlar.
4. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida mifologik dunyoqarash unsurlari.
5. Xodi Zarif o'zbek folklorshunosligining asoschisi
6. To'ra Mirzaev – folklorshunos.
7. Bugungi o'zbek folklorshunosligining rivoji.
8. Xalq dostonlarini o'rganish tajribalari va yangi nazariy qarashlar
9. O'zbek mifologiyasi xalq qadiyatlarining tarkibiy qismi sifatida
10. "Dada Qo'rquq kitobi" va "Alpomish" dostonida mifologik tizimning qiyosiy tahlili.
11. Xalq qo'shiqlarida mifik timsollar.
12. Ertaklarda mifik unsurlar.
13. Alisher Navoiy ijodi va mif.
14. O'zbek folklorshunosligining tadrijiy taraqqiyotida mifologik tasavvurlar tadqiqi.
15. Xalq dostonlari va mifologiya
16. Mustaqillik davri folklor asarlari nashrlari tajribasi.
17. "Alpomish" dostonidagi avlod shajarasi dostonida ikki bora to'liq qaytariladi. Birinchisi doston boshlanmasida baxshi tomonidan aytilsa, ikkinchisi Alpomish Qalmoqdagi chohdan chiqib, yurtiga qaytayotganda ilk bor uchragan karvonlaragi bu shajarani to'liq aytadi.
18. Bundan maqsad nima? Bu sanoq qanday mazmunga ega? Epos mazmuni kesimida talqin eting.
19. "Alpomish"da kuylangan:
20. «*Davlat qo'nsa bir chivinning boshiga,*
21. *Semurg' qushlar salom berar qoshida*» shohbaytning doston voqeligiga qanday aloqasi bor?
22. "Alpomish" dostonida Dobonbiyning 14 botmon brinchdan bo'lgan yoyi uzoq vaqt harakatsiz yotdi. Alpomish etti yoshida bu yoyni otib, alp ataldi. Oradan vaqt o'tib yoy yana chang bosib qoldi. Yodgor uni bazo'r sudrab tortdi. Bu yoyning o'g'uz qissalaridagi Uch o'q va Bo'z o'q urug'lari bilan bog'liqligini va ma'no qirralarini aniqlashga harakat qiling.
23. "Alpomish"da Qalmoq alplari mubolag'aviy tasvirlanadi, ammo Alpomishning bu xil tasviri yo'q. Bu usulning qo'llanishidan baxshi-shoirlar nima maqsad qilishgan?
24. Qultoy aytadi: "*Alpomishning chap elkasida mening qo'limning izi bor*". Qultoy kim? Uning dostondagi o'rni qayerda? Bodom bikach Barchin bilan o'lan aytishadi. Nega Bodom bikach bilan Barchin? Bu aytishuvning poetik yuki qanday deb o'ylaysiz?
25. Poygada qatnashgan otlar hisobini chiqaring, chavandozlarning etnik tarkibini aniqlang va poygani shu xil tahlil qiling. Bu hosilani eposning umumiy g'oyasiga bog'lab talqin eting.
26. Qalmoq alplari Barchinga sovchi bo'lib kelishadi. Barchinning yoshini hisob-kitob qilib, o'tovini alohida, uning o'zi javob beradi degan qarorini aytishadi. Bu talqinning marosimiy asosi va poetik ma'no qamrovini aniqlang.
27. "Alpomish" dostonida Yortiboy obrazining poetik yuki qanday? Uning:
Maslahat bermaymiz Boysari boyga,
Osilmaylik Boybo'rining doriga..
Va Kashalda aytgan:
Bolalarni tog'a-jiyan qilamiz
Bu ellarda erkin bo'lib yuramiz.
Ushbu javoblarning talqini qanday?

28. Cho‘lponning ushbu: “BOYCHECHAK”

“Boychechakning bolasi”

Ochdi yuzini;
Suvga chiqqan xolasi
Ko‘rdi qizini!

«Boychechakning bolasi»

Yetimcha bir qiz...
Uning o‘gay onasi
Juda yomon tez!

«Boychechakning bolasi»

Yulib olindi,
Yurtning ko‘zi olasi
Juda sevindi!

«Boychechakning bolasi»

Har uyda kuldi,
Go‘daklarning xaltasi
Non bilan to‘ldi!.. she‘ri, bu she‘r ma‘nosi va unda tasvirlangan voqelikning

«Yomg‘ir yog‘aloq,

Echki chaqaloq,

Boyning qizining,

Qorni dumaloq» qo‘shig‘iga qanday aloqasi bor? Har ikki asar: Cho‘lpon she‘ri va bolalar qo‘shig‘ining Navro‘z bayrami bilan kesishadigan nuqtalarini toping va talqin bering?

29. Daryo obrazi kelgan xalq qo‘shiqlari:

Sizni unda, bizni bunda yaratdi,

O‘rtamizda oqar daryo yaratdi,

Oqar daryo ekan oqdi-yu ketdi,

Bevafo yor ekan, tashladi, ketdi.

to‘rtligi va “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi Go‘ro‘g‘li va Rayhon podsho yurtlarini ajratib turuvchi daryoga qanday bog‘liqlik o‘rinlari bor? Bu bog‘liq nuqtaning semantik ko‘lamini aniqlang, talqin bering.

30. “Daryoning ul yuzida uylaringiz

Oqarishib ko‘rinadi bo‘ylaringiz”. Turkum qo‘shiqlari semantikasini ushbu kesimda olib, tadqiq eting.

31. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni avvalida Go‘ro‘g‘lining otasi Ravshanni Shohdorxon askarlari yov bo‘lib kelganda Hamza asir qilib, yashirincha olib ketadi.

Savol: nega Taka-Yovmit ahli bu holatga bee‘tibor qoldi? Sabab nima? Bu epizodning epos g‘oyasiga aloqasi qanday?

32. Ravshan sinchi va To‘laboy sinchi munosabati va raqobatining semantik ko‘lamini epos voqeligi ma‘no qatlamlari kesimida talqin eting.

33. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilish vaqti, uning qabrda kechgan davri, biya emib ulg‘ayishi va Rustam qo‘liga kelib, o‘z yurtiga qaytgungacha bo‘lgan vaqt talqinini epik qahramon hamda etnos kesimida tahlil qiling.

34. Go‘ro‘g‘li turkumida ettita epik ot tarjimai holi, epik talqinlari aks etgan. Bu otlar qanday otlar va ularni epik ot obrazida talqin eting.

35. Alp – eposning qahramoni. Etnosda uning quvvatini namoyon etuvchi sohibqironlar va ulug‘ quvvatli sarkarda-yu, podsholarning umumlashma badiiy obrazi bu alp hisoblanadi. “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonida alplik tizimi asar yadrosini tutib turuvchi mohiyatlardan biridir. Alplik tizimi tasavvurlarini ushbu dostonlar misolida qayta tekshirib chiqing.

36. O‘zbek xalq qo‘shiqlari, xususan, lirik qo‘shiqlarda poetik ramzlar asosiy fikr, tuyg‘u, kechinma ifodachi sifatida muhim o‘rin tutadi. Qo‘shiqlardagi etakchi ramziy obrazlar: olma, ro‘mol, tom, g‘oz, o‘rdak, shaftoli, tamaki, oq, qizil, sariq va hakazolar semantikasini aniqlab, qo‘shiqlarni talqin eting.

	<p>37. “Susambil” ertagida nega hayvonlar Susambilga borishadi? Susambilning Chambilga aloqasi bormi? Chambil qanday shahar, bu tasavvurlarning asosi va badiiy talqinlari haqida o‘z xulosalaringizni ayting.</p> <p>38. Ertaklardagi uch aka-uka yo‘l oluvchi manzillar: 1. Borsa kelar; 2. Borsa noma‘lum; 3. Borsa kelmas. Bular qanday talqinga ega? Nega kenja botir borsa kelmasga boradi. Bu ertaklar nimadan xabar beradi?</p> <p>39. “Ur to‘qmoq”dagi sehrli buyumlar: Ochil dasturxon; Qaynar xumcha; Urto‘qmoq va yana yalmog‘izning uch atributi: tarq; qayroq; oyna va bu jismlarning semantikasi nima? Nega ular bu xususiyatlarni oldi? Ertak kesimidagi ma‘nosi va hayotdagi mohiyati nima?</p> <p>40. “Dunyoda yo‘q hunar”, “Uch ko‘r va bir yigit”, “Qo‘ng‘iz bekach” ertaklari ifodalayotgan ramziy-timsoliy vositalari bizga nimalardan xabar beradi?</p> <p>41. “Ravshan” dostonidagi: «Yor aylanay qalpoq tikkani qo‘lingdan» deb boshlanuvchi murojaat va Ravshanning bozordagi xaloyiqqa “Uzoqdan kelayotibman” deb boshlanuvchi qo‘shiqlarning “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridagi boshqa barqaror shakl va formulalar bilan munosabatini tahlil eting.</p> <p>42. Xalq ertaklari va dostonlaridagi tushlarning badiiy vazifasi va semantikasini “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlari hamda bir qator ertaklar misolida qiyosan tahlil eting.</p> <p>43. Xalq dostonlari va ertaklarida sinov kompleksi – tabu, shart, shartlilik bilan bog‘liq motivlar mavjud. Sinov turlarining asar syujetidagi o‘rni va vazifalarining umumiy va xususiy jihatlari ko‘rsating.</p> <p>44. “O‘lan”, “Yor-yor”, “Kelinsalom” va «Ashula» - lirik qo‘shiq janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari va uyg‘un jihatlari.</p> <p>45. Afsona, naql va latifalarning voqelikni aks ettirishdagi farqi va assotsiativ ma‘nolarini yoritib bering.</p> <p>46. Maqol, topishmoq va chaldirmoq janrlarini qiyosan tahlil eting. Maqollarning o‘z va ko‘chma ma‘nolariga diqqat qarating. Topishmoq va chaldirmoqlarning uyg‘un va farqli xossalari to‘xtaling.</p> <p>Izoh: Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p>3.</p>	<p>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> – folklor janrlari, xalq og‘zaki ijodi genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash, adabiyot va folklor munosabati haqida tasavvurga ega bo‘lishi; xalq og‘zaki ijodining sinkretik san‘at ekanligini, boshqa san‘at turlaridan farqli jihatlari ko‘rsatib berish, o‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng xalq og‘zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi, shuningdek, folklor namunalarini tahlil qilish, ularni xalq orasidan yig‘ish va tasniflash malakasini egallashi; - talabalar o‘zbek folklorining jahon folklori merosida munosib o‘rnini anglashi va ularni baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. .
<p>4.</p>	<p>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma‘ruzalar;

	<ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (aqliy hujum, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek folklori /Darslik. – Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020. 2. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2009. 3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2010. 4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2013 5. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: “Aloqachi”, 2008. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал). 8. Ш. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 9. Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Toshkent: Ўзбекистон, 2017. 10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель). 11. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). T.:1999. 12. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан. – 410 с. 13. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent, O‘zbekiston, 2012. 14. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – Toshkent: “Fan”, 2008. 15. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent, “Fan”, 2006. 16. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: “Fan”, 2010. 17. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015, 2016. <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 18. lectures.ndpi.uz>lektions 19. news.uzreport.uz>news 9 u136022 20. www.folklore.ru. 21. www.folksentr.ru 22. https://m.vk.com>club1962650 23. folklore.tomsk.ru 24. www.ruthenia.ru>folklore
7.	<p>Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning</p>

	<p>202__ yil “__” _____ dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202__ yil “__” _____ dagi _____ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sullar:</p> <p>A.Tilavov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek adabiyoti tarixi va folklor dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p> <p>I.Sayitqulov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Sh.Turdimov – O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti etakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori</p> <p>D.O‘raeva – Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori</p>